IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 22 Issue 01 IYUN 2026

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINI NUTQIY KOMPETENSIYALAR VA O'QIB TUSHUNISHNI RIVOJLANTIRUVCHI MASHQLAR BILAN ISHLASHGA O'RGATISH KO'NIKMALARI

Rustamova Dilfuzaxon Vohidjon qizi
Qo'qon Universiteti ta'lim kafedrasi o'qituvchisi
rustamovadilfuza7755@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini nutqiy kompetensiyalar va o'qib tushunishni rivojlantiruvchi mashqlar bilan ishlashga tayyorlashning nazariy-pedagogik asoslari tahlil qilingan. O'qish savodxonligi va nutqiy kompetensiyaning ta'lim jarayonidagi o'rni, bo'lajak o'qituvchilarda ushbu kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi metod va texnologiyalar yoritilgan. Shuningdek, o'qib tushunishni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar tizimi hamda ularni amaliyotda qo'llashning samarali usullari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: nutqiy kompetensiya, o'qish savodxonligi, o'qib tushunish, boshlang'ich ta'lim, bo'lajak o'qituvchi, kommunikativ kompetensiya, interaktiv metodlar, matn bilan ishlash, ta'lim texnologiyalari, pedagogik tayyorgarlik.

Mamlakatimiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishni ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilab bermoqda. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining nutqiy kompetensiyasi va o'quvchilarda o'qish savodxonligini shakllantirishga oid metodik tayyorgarligi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarning keyingi ta'lim faoliyati uchun poydevor vazifasini bajaradi.

Bugungi kunda xalqaro baholash dasturlari, xususan, PISA va PIRLS tadqiqotlari natijalari o'quvchilarning matnni o'qish va tushunish kompetensiyalarini rivojlantirish muhimligini ko'rsatmoqda. Shu sababli bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'qib tushunishni rivojlantiruvchi mashqlar bilan ishlashga o'rgatish dolzarb pedagogik muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Talabalarning bilishga bo'lgan qiziqishi shakllanishining muhim shartlaridan bin hissiy vaziyat, bilishga bo'lgan ehtiyoj va ongli fikrlashni rivojlantirishni yaratish bo'lishi ham mumkin. Talabalarning bilish faoliyati tuzilmasiga faollik kiradi, ya'ni bu shunday ish faoliyatiki, unda bilish faoliyatini jonlantiradigan intellektual, irodaviy, hissiy jarayonlar birgalikda namoyon bo'ladi.[1]

Nutqiy kompetensiyaning mohiyati va mazmuni

Nutqiy kompetensiya shaxsning og'zaki va yozma nutq vositasida fikrini to'g'ri, ravon va mantiqiy ifodalash qobiliyatini anglatadi. Ushbu kompetensiya til birliklaridan samarali foydalanish, muloqot madaniyatiga rioya qilish va turli kommunikativ vaziyatlarda nutqiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishni o'z ichiga oladi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi nafaqat o'zi yuqori darajadagi nutqiy kompetensiyaga ega bo'lishi, balki o'quvchilarda ham mazkur kompetensiyani shakllantirish metodikasini puxta egallashi zarur. Chunki o'qituvchining nutqi ta'lim jarayonidagi asosiy pedagogik vositalardan biri hisoblanadi.

Nutqiy kompetensiyaning tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi: lingvistik kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, sotsiolingvistik kompetensiya, pragmatik kompetensiya, diskursiv

[1] Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.35-b.

kompetensiya. Mazkur komponentlarning uyg‘un rivojlanishi o‘qituvchining kasbiy faoliyat samaradorligini ta’minlaydi.

O‘qib tushunish kompetensiyasi matn mazmunini anglash, tahlil qilish, baholash va undan zarur axborotni ajratib olish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi. Ushbu kompetensiya barcha fanlarni o‘zlashtirishning muhim omili hisoblanadi.

O‘qib tushunish jarayonida o‘quvchi: matn mazmunini anglaydi, asosiy g‘oyani aniqlaydi, sabab-oqibat munosabatlarini tushunadi, xulosalar chiqaradi, tanqidiy fikr yuritadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mazkur ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun bo‘lajak o‘qituvchilar maxsus metodik tayyorgarlikka ega bo‘lishlari lozim. Bo‘lajak o‘qituvchilarni mashqlar bilan ishlashga tayyorlashning metodik asoslari. Oliy pedagogik ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy mashg‘ulotlarga ham alohida e’tibor qaratilishi zarur.

Mashqlar bilan ishlashga o‘rgatishda quyidagi tamoyillarga amal qilish maqsadga muvofiq: tizimlilik, izchillik, amaliy yo‘naltirilganlik, individuallashtirish, refleksivlik. Mazkur tamoyillar bo‘lajak pedagoglarda metodik kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda, ya’ni rivojlanib borayotgan jamiyatda yoshlarimizni mustaqil va mantiqiy fikrlashga o‘rgatishimiz zarur. Shu sababdan darsliklarimizda matnlar va matnga doir topshiriqlar ko‘paymoqda. O‘zbek tilshunosligiga matn nazariyasining olib kirilishi va yangi taraqqiyot bosqichiga ko‘tarilishida N.M.Turniyozov, B.Yo‘ldoshev, A.Mamajonov, E.Qilichev, M.Hakimov, M.Yo‘ldoshev, S.Boymirzayevaning tadqiqotlari muhim ahamiyat kasb etdi. Tilshunoslikda matnni psixolingvistik jihatdan o‘rganish ham o‘ziga xos tarixiga ega. Ayniqsa, tilshunoslar I.Lisakova, A.A.Leontev, N.S.Evchik, A.Shtern, T.A.Drozdovalarning bu boradagi tadqiqotlari diqqatga sazovor.

Ma’lumki, oldingi darsliklarda ko‘proq grammatik qoidalar va grammatik topshiriqlar ko‘p edi ammo o‘quvchi tayyor qoidalar asosida ishlash bilan cheklanib qolgan edi, mustaqil fikrlamas edi. Hozirgi vaqtga kelib matnlarimizni tahlil qilishda og‘zaki va yozma nutqni shakllantirishda matnni o‘qib tushunish, tinglab tushunish, nutq so‘zlash va yozma savodxonlik kabi tamoyillardan foydalanilmoqda. Bulardan o‘qib tushunish tarmog‘i o‘quvchini o‘ylashga, fikrlashga undaydi.

O‘qib tushunish-matnni mazmunan anglashga doir nutqiy faoliyat turi. Shuningdek, eshitish organlaridan ko‘ra ko‘rish organlari ancha layoqatli, shu sababdan matn ko‘rinishidagi xabar eshitilgan xabardan ishonchliroqdir. Matnni o‘qish davomida ijodkor aytmoqchi bo‘lgan tagma’no mazmunni sezishimiz lozim va unga o‘zimiz xulosa bera olishimiz kerak. O’qituvchi faolaiyati til materiallarini tanlash va uni o’quvchilarga berish usullaridan torib, ularning o’quv mehnatini tashkil etish, egallangan bilim, ko’nikma va malakalarni baholashgacha bo’lgan barcha jarayonlarni o’z ichiga oladi.[2]

O‘qish metodikasi adabiyot nazariyasiga asoslanadi. Chunki o‘quvchilar badiiy asarni amaliy tarzda tahlil qiladi. Boshlang‘ich sinflarda adabiyotshunoslikdan nazariy ma’lumot berilmaydi, ammo metodika adabiy asarning yaratilish qonuniyatlarini va uning o‘quvchilarga ta’sirini ayniqsa, adabiyotshunoslikka oid mavzulardan asarning g‘oyaviy mazmuni, uning mavzusi va mazmunini, qurilishi, janri, tasviriy vositalarini hisobga olish zarur. [3]G.A.Asilova - ped. fan. doktori (DSc) ToshDO‘TAU professori o‘qib tushunish haqida shunday deydi: “O‘qib tushunish - nutqiy faoliyatning turlaridan biri sifatida murakkab psixofiziologik jarayon bo‘lib,

[2] G‘ulomov A., Yo‘ldoshev J. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020. 19-b.

[3] Qosimova K., Matjonov S., G‘ulomova X. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2021. 10-b.

faqat muayyan lingvistik poydevor, ya'ni fonetik va leksik-grammatik bilimlar asosida amalga oshiriladi. O'qish ko'nikmalarini rivojlantirishda ushbu jarayonning 2 tomoni, ya'ni yozma xabarni qabul qilishga tayyorlaydigan o'qish texnikasini hamda axborotni sodir bo'lgan nutqiy faoliyat mahsuli sifatida anglashni inobatga olish zarur. Buning muhim sharti esa tizimli va maqsadga qaratilgan maxsus mashqlarni bajarishdir. O'qishni nazorat qilish obyekti matnning til materiali emas, uning mazmunini tushunishdir. Nutqiy faoliyatning barcha turlari bo'yicha o'zaro bog'liq ta'limning maqsadga muvofiqligi va samarasi haqidagi metodik qoida o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish boshqa nutqiy ko'nikmalar, avvalambor gapirish ko'nikmalari bilan parallel tarzda rivojlantirilishini taqozo etadi". O'qib tushunish ko'nikmasi orqali inson ongiga, tafakkuriga ham ta'sir etish mumkin va o'quvchini mantiqiy fiklashga chorlaydi. Bu borada matn yuzasidan keltiriladigan topshiriqlar ham katta rol o'ynaydi. Chunki o'quvchi anglamay qolgan mazmunga topshiriqlar turtki beradi va uning tushunishiga ko'maklashadi.[4]

Ko'rnamak Jahonga mashhur Xusrav davrida shohlar yeydigan ba'zi bir taomlarni fuqaroning yeyishi man qilingan, agar o'sha taomni qora xalqdan biror kishining yegani ma'lum bo'lib qolsa, qattiq jazolanar ekan. Bir odam podshohga yaqin yasovulni mehmon qilibdi va uning oldiga hukmdorlar yeydiga anvoyi taomlardan keltirib qo'yibdi. Yasovul bu uydan chiqishi bilanoq qog'oz, qalam olib, men falon kishining uyida mehmon bo'ldim, dasturxonga shohlarga xos anvoyi taomlar keltirib qo'ydi, azbaroyi hazrati oliylariga ixlosim baland bo'lgani uchun bu hodisani ma'lum qilyapman, deb yozibdi.

Xusrav qog'ozning orqasiga shunday javob yozibdi: "Bu qilmishing uchun senga aytadigan arzon tahsin - ofarinim yo'q, ammo u odamni podshohlar yeydigan taomni pishirgani uchun emas, balki yomonlikni ravo ko'radigan ko'rnamakni mehmon qilgani uchun jazolayman". ("Adolat tarozisi"dan)

1- topshiriq.

Yuqoridagi matn mazmuniga mos maqol, hikmatli so'z va iqtiboslarni toping

Tuzini yeb, tuzlug'iga tupurmoq. (maqol)

Ko'rnamak odabdan ham mudhishroq yana kim bo'lishi mumkin? (V.Shekspir)
Bir kun tuz ichgan joyga qirq kun salom ber. (maqol)

Dili qora - tili qora. (maqol)

Yomon bilan yo'ldosh bo'sang, yomondan burun o'lasan. (maqol) Yomon oshga o'rtoq boshga-to'qmoq. (maqol)

2- topshiriq.

Ko'rnamak - So'ziga izoh bering va sizningcha kimning qilgan ishi xato?

Ko'rnamak - Yaxshilikni qadrlamaydigan, yaxshilikka yomonlik qiladiga, tuzingni ichib tuzlug'inga tupuradidan inson, nonko'r.

Matndan ko'rinib turibdiki, inson yaxshilik qilib yaxshilik ololmadi. Balki o'sha oddiy odamning o'zida ham katta xato bordir, chunki shohlarga xos taomdan iste'mol qilyapti. Yasavulning qilmishini esa kechirib bo'lmaydi. Agar u hukmdorga shu darajada sodiq bo'lganida o'sha taomni iste'mol qilmasdan shohga xabar berar edi.Bu o'rinda Xusravning ishini eng to'g'ri yo'l deb olsak bo'ladi, chunki agar o'sha odam taomni yasavulga bermasdan o'zi yeganida ham jazodan qutilib qolishi mumkin edi, ammo u yana bir kishiga taomdan berdi, u kishi nonkur ham chiqdi. Xusrav bu o'rinda yomonga qo'l cho'zsang o'zingni tortib ketadi ma'nosida o'sha odabga tanbeh berib jazolaydi.Yasavulga esa hech qanday jazo tayinlamaydi. Bundan ko'rinib turibdiki ko'proq yasavulga taom bergan kishining ishi noto'g'ri.

3- topshiriq.

[4] Rustamova D. / Nutqiy kompetensiyalar. O'quv qo'llanma. Farg'ona. Classic. 2025-y. 98-b.

Matndan kelib chiqib unga mos xulosa keltiring.

a) Beli og‘rimaganning non yeyishini ko‘r.
b) Birovga choh qazisang, o‘zing tushasan.
c) tuzini yeb tuzlug‘iga tupurish tupurish.

O‘qib tushinish ko‘nikmasini rivojlantirishda badiiy va ilmiy matnlarning tahliliga alohida e’tibor qaratiladi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini nutqiy kompetensiyalar va o‘qib tushunishni rivojlantiruvchi mashqlar bilan ishlashga o‘rgatish zamonaviy pedagogik ta’limning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. O‘qituvchilarning ushbu sohadagi metodik tayyorgarligini takomillashtirish o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi, tanqidiy fikrlashi va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois pedagog kadrlar tayyorlash jarayonida amaliy mashg‘ulotlar, interaktiv metodlar va zamonaviy raqamli texnologiyalardan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. 35-b.
2. G‘ulomov A., Yo‘ldoshev J. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020. 19-b.
3. Qosimova K., Matjonov S., G‘ulomova X. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2021. 10-b.
4. Rustamova D. / Nutqiy kompetensiyalar. O’quv qo’llanma. Farg‘ona. Classic. 2025-y. 98-b.